Cho' chqachilik fermalarida afrika cho' chqa grippiga qarshi profilaktik choralar

Cho' chqachilik fermalarida profilaktik choralarning maqsadi

1. **Afrika cho'chqa grippi** ferma hududiga **odamlar, yuk tashuvchilar, transport vositalari va tovarlar** orqali kirib keladi va tarqaladi.
2. Fermalar **viruslarning** yuk tashuvchilari, transport vositalari, tovarlar va odamlar orqali **kirib kelishidan mukammal darajada himoyalangan** bo'lishi talab etilib, buning uchun ferma xodimi **"Men fermaning himoyachisiman"** g'oyasi asosida faoliyat yuritishi zarur.

1. Ferma atrofida (Tashuvchilar, Transport vositalari, Odamlar)

Ferma hududining atrofi bo'ylab mustahkam to'siq o'rnatgan holda, fermaning hududiy chegara to'siqlarida teng ravishda yovvoyi hayvonlarga qarshi kurash vositasi (repellent)dan foydalaniladi

* To'siqlar fermaning atrofi bo'ylab bo'shliqsiz holda 1,5 m va undan yuqori balandlikda o'matiladi

Ferma perimetri bo'ylab so'ndirilmagan ohakni eni 50 sm dan os-hgan chiziq ko'rinishida sepib chiqiladi va vaqti-vaqti bilan ferma hududiga kirishyo'llarida dezinfeksiyalash ishlari amalga oshiriladi.

Agar fermaning atrofida to'ng'iz (uning jasadi yoki tezagi i) topilsa, bu haqida darhol atrof-muhit ni muhofaza qilish yoki kasalliklarning oldini olish tashkilotlariga xabar beriladi

To'ng'izlarlar mavjud bo'lgan hududlarda yetishtirilgan (qishloq xo'jaligi maydonlarida) don va somonli mahsulotlarni ferma hududiga olib kirish mumkin emas.

Fermadan tashqarida foydalanilgan asbob-uskunalarni (traktor, kultivator kabilar ferma ihududiga olib kirish mumkin emas

Chorvalarni tashuvchi transport vositalarni ferma hududiga imkoni boricha kiritmaslik lozim.

- Transport vositalarining g'ildiraklari va pastki qismlaridagituproq kabi organik moddalar yuqori bosimli yuvish vositasi orqali tozalanganidan so'ng, dezinfeksiyalanadi, Haydovchi o'rindig'i esa oddiy sterilizator yordamida dezinfeksiya qilinadi

Fermani hududi va atrofi tozalanib, ish kiyimlari, bosh kiyimlar va poyabzallarnihar kuni dezinfeksiyalanadi va har 2-3 kun oralig'ida yuviladi

* Chivinlar paydo bo'lishini oldini olish maqsadida fermaning atrofidagi ifloslanishi mumkin bo'lgan hududlarda (axlat uyumlari, botqoqliklar, butazor kabilar) doimiy ravishda dezin-feksiyalash ishlari amalga oshirilib, begona o'tlardan tozalash ishlari tashkillashtiriladi

Tibbiy xizmat ko'rsatishdan tashqari boshqa holatlarda ferma hudud-iga begona shaxslarning kirishi ta'qiqlanadi

* Ovchilar va fermerlarning fermaga kirishi qat'iyan taqiqlangan
* Hududga kirish va chiqishni qattiq nazorat qilib, asosiy kirish va chiqish punktidan boshqa barcha kirish-chiqish yo'laklari berkitib qo'yiladi.

Ferma xodimlari ov faoliyati yoki alpinizm bilan shug'ullanmasliklari kerak

* Yovvoyi hayvonlar yashaydigan hududlarga, ko'lmaklarga yoki to'ng'izlar mavjud bo'lgan ekinzorlarga borish ta'qiqlanadi

농림축산식품부
Ministry of Agriculture, Food and Rural Affairs

Livestock Health Control Association
가축위생방역지원본부

2. Ferma ichida (Tashuvchilar, Transport vositalari, Odamlar)

Fermaning ichki hududi toza saqlanib,vaqti–vaqti bilan kompost va yem–xashak saqlash omborlari, hayvonlarni transportlarga chiqar–ishga ko'maklashuvchi moslamalar tozalanib dezinfeksiya qilinadi

Fermaning ichida yovvoyi qushlar va parrandalar uchun yemish bo'ladigan(yem–xashak, oziq–ovqat qoldiqlari, sholi qobig'i(sheluxa), hayvonlarning ostiga to'shaladigan somon yoki poxol) vositalarni chiqarib tashlash ta'qiqlanadi.

Fermada o'lik hayvon tanasi, o'lik tug'ilgan hayvon embrionlari yoki yo'ldoshlar va boshqalarniqarovsiz qoldirish yoki ularni kompost maydonchasida tashlab yuborish mumkin emas.

* Kasalliklarni oldini olish uchun chorva jasadini munosib tarzda yo'qotish vositasi yoki maxsus korxonalarning ushbu holat bilan bog'liq xizmatlaridan foydalaniladi.

Ferma ichidagi drenaj yo'llari va bo'sh oraliqlarda to'rli panjaralar o'rnatilib, kompost, yem–xashak, somon(sholiqobig'i) saqlash om–borxonalariga qush va parrandalarning kirishini cheklash maqsadida to'rli panjaralar o'rnatiladi.



Fermada parvarish qilinadigan hayvonlar (itlar, mushuklar va boshqalar) atrofda aylanib yurishlariga yo'l qo'ymasdanularni fermada belgilangan joylarda bog'lab qo'yish lozim.

* Ularning fermadan chiqib ketishlariga yo'l qo'ymaslik uchun kirish–chiqish joyi nazorat qilinadi.

Fermada foydalaniladigan chorvalarni ortish va tushirish jihozlari kabi uskunalar har kuni tozalanib, dezinfeksiya qilingan holdai, maxsus omborxonalarda saqlanadi

* Omborxonalarga saqlash uchun olib kirishdan oldin ularni doimiy ravishda ultrabinafsha nurlari (UV) yordamida dezinfeksiya va sterilizatsiya qilinadi

Fermaga kirish joyida sterilizatsiyalovchi kabinalar va oyoq kiyimni sterilizatsiyalovchi moslamalar o'rnatilib, hududga kirib–chiquvchi shaxslarni dezinfeksiyalagan holda ro'yxatga olinadi



Fermaga kirish joyida dezinfeksiyalash xonalari tashkil etilib, hududga kirib–chiquvchi shaxslar yaxshilab dezinfeksiya qilinadi

* Ferma hududiga kirib–chiquvchi shaxslarning dush qabul qilishlari, kiyim va poyabzallarini almashtirish, dezinfeksiyalashlarini tashkil qilish lozim.

1588-9060
1588-4060

3. Ferma ichida (Carriers, Buyumlar, People)



Vaqti–vaqti bilan fermaning ichki qismini tozalash va dezinfeksiyalash ishlari amalga oshiriladi.



Fermada mavjud har qanday teshiklarni to'ldirish, hasharotlar, kalamush–lar va chivinlarning kirishiga to'sqinlik qiluvchi to'rli panjaralar o'rnatiladi

– Hasharotlar, qushlar va hokazolarning ventilyatsiya yo'llari va tuynuklar (derazalar) orqali kirishlarini oldini oluvchi maxsus hasharotlarga qarshi to'rlar o'rnatiladi

* Kalamushlarni va chivinlarni yo'q qilish uchun yopishqoq qog'oz, sichqon vakalamushlarga qarshi qopqonlar, zararkunandalarga qarshi lampa va boshqa vositalar(anthelmintics)dan foydalaniladi.



Yangi olib kelingan cho'chqalar va chorva mollari fermaningning alohida karantin maydonchasida ajratilib joylashtirlishi zarur. Ular boshqa cho'chqa fermasiga ko'chirilguncha diqqat bilan kuzatib borilishi kerak.

Cho'chqalar bilan bevosita aloqada bo'lgan buyum va vositalar (shpritslar, sun'iy urug'lantirish asboblari, arqon kabilar) vaqti–vaqti bilan tozalanishi va dezinfektsiyalanishi hamda tashqariga olinib chiqilmasdan, ichkaridagi omborxonada saqlanishi kerak.



Ferma ichkarisigakiraverishda odamlar etiklari va kiyimlarini almasht–irishlari mumkin bo'lgan maxsus xona tashkillashtiriladi. Tashrif buyu–ruvchilar ferma ichkarisiga kiraverishlarida maxsus individual kiyim va poyabzallarni kiyishlari va qo'llarini yaxshilab yuvishlari talab etiladi.

농림축산식품부
Ministry of Agriculture, Food and Rural Affairs

Livestock Health Control Association
가축위생방역지원본부